O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.28/2025.27.12.Ped.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

SHAYIMARDANOV SHERALI ABDURASHIDOVICH

AMALIY GIMNASTIKA VOSITALARI ORQALI OLIY TA’LIM TASHKILOTI TALABALARINING MAXSUS-HARAKAT TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH

13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFARATI

Chirchiq-2026

UO‘K: 796.4:015.132:05:378

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtorefarati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогичэским наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical science

Shayimardanov Sherali Abdurashidovich
Amaliy gimnastika vositalari orqali oliy ta’lim tashkiloti talabalarining maxsus-harakat tayyorgarligini rivojlantirish…..…….....……..... 3

Шайимарданов Шерали Абдурашидович
Развитие специальной двигательной подготовки студентов вуза средствами практической гимнастики..... 29

Shayimardanov Sherali Abdurashidovich
Developing special motor skills of university students through practical gymnastics techniques..... 59

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of Published works..... 63

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.28/2025.27.12.Ped.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

SHAYIMARDANOV SHERALI ABDURASHIDOVICH

AMALIY GIMNASTIKA VOSITALARI ORQALI OLIY TA’LIM TASHKILOTI TALABALARINING MAXSUS-HARAKAT TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH

13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFARATI

Chirchiq-2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Ped2037 raqami bilan ro‘yxat olingan.

Doktorlik dissertatasiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiyaning avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezume)) ilmiy kengashning rasmiy veb-saytida (www.uzdjtsu.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Imiy rahbar:	**Umarov Mars Narziyevich** pedagogika fanlari nomzodi, professor
Rasmiy opponentlar:	**Isakulova Nilufar Janikulovna** pedagogika fanlari doktori professor
	Bekmirzayev Mirjalol Xusanboy o‘g‘li pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	**Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.28/2025.27.12.Ped.02.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 18 - noyabr soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, Veb-sayt: www.uzdjtsu.uz. e-mail: uzdjtsu@uzdjsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “E” bino, 3-qavat 309-auditoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (0267 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19- uy. Tel: (0-370) 717-17-79,717-27-27, faks.: (0-370) 717-17-76.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “6” – noyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil “18” - sentabrda 16 raqamli reestr bayonnomasi)

R.M.Matkarimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi p.f.d. (DSc), professor

Sh.Sh.Gaziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, p.f.d. (DSc), professor

M.S.Olimov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy
seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqotning dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida talabalar jismoniy tarbiyasi tizimini takomillashtirish, mashg‘ulot jarayonini yoshlarning jismoniy rivojlanish xususiyatlari va funksional imkoniyatlariga mos tashkil etish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Talabalarning jismoniy tayyorgarligi tarkibida kuch qobiliyatlarini rivojlantirish musobaqa faoliyatida yuqori natijalarga erishish bilan bir qatorda, kundalik va kasbiy faoliyatda uchraydigan jismoniy yuklamalarni bajarish uchun ham zarur hisoblanadi. O‘spirinlik davrining 18-21 yosh oralig‘ida tayanch-harakat apparati hamda asab-mushak tizimining shakllanish darajasi kuch qobiliyatlarini maqsadli rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Mazkur yosh davri aksariyat yoshlarning oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olish bosqichiga to‘g‘ri kelishi talabalar jismoniy tarbiyasi mashg‘ulotlarida kuch tayyorgarligiga yo‘naltirilgan vosita va yuklamalardan oqilona foydalanishni talab etadi. Shu sababli oliy ta’lim tashkilotlarida talabalar kuch qobiliyatlarini ularning yosh, jismoniy tayyorgarlik va funksional imkoniyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulot dasturlarini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Jahonda talabalarning kuch qobiliyatlarini rivojlantirishda amaliy gimnastika mashqlaridan foydalanish, ularni o‘quv va mashg‘ulot jarayoniga moslashtirish hamda yuklamalarni oqilona rejalashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur yo‘nalishdagi izlanishlarda talabalarning harakat vazifalarini bajarish imkoniyatlarini kengaytiruvchi pedagogik vosita va usullarni tanlash, kuch, tezlik-kuch va kuch chidamliligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulot mazmunini takomillashtirish masalalari o‘rganilmoqda. Kuch qobiliyatlarining ushbu turlari sport faoliyatida alohida holatda emas, balki o‘zaro bog‘liq ravishda namoyon bo‘lishi sababli ularni kompleks rivojlantirishga ehtiyoj mavjud. Atletik gimnastika mashqlarining jismoniy holatga ta’sirini baholashda shug‘ullanuvchilarning somatik rivojlanishi, tana tuzilishi va harakat imkoniyatlarini hisobga olgan tabaqalashtirilgan yondashuvlardan foydalanishga e’tibor qaratilmoqda. Bunday yondashuv mashg‘ulot vositalari, hajmi va shiddatini talabalarning individual xususiyatlariga mos holda belgilashni talab etadi.

O‘zbekistonda oliy ta’lim tashkilotlarida o‘quv va mashg‘ulot jarayonida talabalarning jismoniy, xususan, kompleks kuch tayyorgarligi masalalari eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanmoqda. Zamonaviy oliy ta’lim jismoniy tayyorgarlikka ega mutaxassislar va vatan himoyachilarini tarbiyalashga qaratilgan mazmuniy, tashkiliy va pedagogik shakllarni o‘zgartirmasdan muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsata olmaydi. Demak, qiyinchilik va muammolarga qaramasdan, mamlakatimizda talabalarning har tomonlama jismoniy tayyorgarligi tizimi tubdan o‘zgarishlarni talab qiladi. "Oliy ta’lim tashkilotlarida kasbiy faoliyat yo‘nalishida zamonaviy bilim va malakaga ega bo‘lgan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni o‘zlashtirgan kadrlarni tayyorlash sifatini ta’minlash"[1] ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham oliy ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya bo‘yicha dastlabki o‘quv dasturlaridan boshlab, asosiy vosita sifatida atletik gimnastika talabalarning kuch qobiliyatlarini kompleks rivojlantirishga e’tibor qaratildi. Hozirgi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-dekabrdagi "Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-449-son Qarori

vaqtda amaliy bo‘lim vositalari har bir oliy ta’lim tashkiloti jismoniy tarbiya kafedralarining ishchi dasturlarida mustaqil ravishda belgilanishiga qaramasdan, kuch yo‘nalishidagi mashqlarni albatta kiritish tavsiya etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5281-son “2024-yilda Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi hamda 2022-yil 23-dekabrdagi PQ-449-son “Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda talaba-yoshlarning intellektual rivojlanishi bilan bir qatorda ularning jismoniy tayyorgarligini mustahkamlash masalalariga ham keng e’tibor qaratilmoqda. Jismoniy tarbiya va sport oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan yoshlarning kundalik faoliyatida muhim o‘rin egallab, sport zallari va majmualarida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar orqali ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha M.N. Umarov, A.K. Eshtayev, K.D. Yarashev, D.X. Umarov, B.B. Musayev, N.X. Yakubova, G.M. Xasanova, I.I. Morgunova, S.A. Eshtayev, X.X. Umarov, M.E. Sulaymonov, X.A. Karimov, S.M. Toylibayev, G.X. Ravshanov[2] tomidan tatbiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlar guruhi Yu.A.Ippolitov, V.B.Korenberg, V.M.Smolevskiy, L.Ya.Arkayev, Yu.V.Menxin, Ye.Yu.Rozin, M.L.Juravinlar o‘z tadqiqotlarida talabalarning o‘quv-mashg‘ulot jarayonini tashkil etish va boshqarish masalalarini ko‘rib chiqishgan, o‘spirinlarning maxsus-harakat tayyorgarligi bo‘yicha o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda, talabalarning bazaviy kuch qobiliyatlarini rivojlantirish masalalarida ishtirok etishgan.

Xorijiy davlatlarda ham talabalarning kuch qobiliyatlarini atletik gimnastika

---

[2] Umarov M.N. va boshq. Gimnastika, darislik. T. Co’lpon nomidagi BMIU, 2018.- 552 b.; **Eshtayev A.K.,** va boshq. «Gimnastika nazariyasi va uslubiyoti» Darslik., T.: 2017.- 500 b.; Ярашев К.Д. Жисмоний тарбия ва спортни бошқариш. Тошкент, «Абу Али ибн Сина», 2002 - 222 б.; Умаров Д. Х. Методология комплексного контроля за уровнем подготовки гимнастов на этапе спортивного совершенствования. Дисс. доктора (DSc) пед. наук. Ч.: УзГУФКС.:. 2022. -225 б.; Мусаев Б.Б. Олий педагогик таълим муассасалари талабаларининг гимнастика бўйича касбий-педагогик кўникмаларини шакллантириш. Дисс. … канд. пед. наук. - Ташкент: УзГИФК, 2011. - 180 б.; Якубова Н.Х. Стоечная подготовка и методика её совершенствования в сложно координационных видах спорта. Дисс. … канд.пед.наук . Т.:.2000.-177 с.; Хасанова Г.М. Построение соревновательного мезоцикла у юных гимнасток на этапе спортивного совершенствования. Дисс. … канд. пед. наук. - Ташкент: УзГИФК, 2011. – 173 с.; Моргунова И. И. Формирование профессионально-педагогических умений и двигательных навыков у студенток на гимнастическом бревне. Дисс. … канд. пед. наук. - УзГУФКС. Ч. 2023.- -141.c. Umarov M.N., Umarov X.X. “Gimnastikani o‘rgatish metodikasi” Darslik, T.: “Evrika nashriyot-matbaa uyi” 2025 yil – 466 b.; Сулейманов М.Э., Аспекты влияния тренировочной и соревновательной нагрузки на организм гимнастов 13-15 лет. // Фан – спортга илмий-амалий журнали. Тошкент, 2020 йил 6-сон-Б. 40-42**.;** Karimov X.A., Tanlangan sport turi bo'yicha mutaxassislikka kirish (gimnastika) Darslik -T.: "TURON-IQBOL", 2025. -368 bet.; Тойлибаев С.М. Жисмоний маданият факультетлари талабаларининг асосий гимнастика воситалари орқали касбий фаолиятини ошириш. Пед. фан. бўйича фалсафа доктори (Phd). УзГУФКС. Ч. 2022.- -118 b. **.....**Равшанов Г.Х. Атлетик гимнастика воситалари оркали академик лицей укувчиларининг жисмоний тайёргарлик даражасини ошириш. Узлуксиз таълим журнали 2011 №3; Б.82-84.;

vositasida rivojlantirishga e’tibor qaratilgan bo‘lib, D.Y. Mitshell, V.L. Davis, R.S.Lorez, Alfiye Kohn, N.B.Nadhiyev, T.I.Bondralarning[3] ishlarida o‘z aksini topgan.

Xulosa qilib aytganda, talabalarning maxsus harakat tayyorgarligi dasturlarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan maxsus adabiyot ma’lumotlari va ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada o‘rganilmagan. Xususan, oliy ta’lim tashkilotlarining o‘quv-mashg‘ulot jarayoniga amaliy gimnastika vositalarini joriy etish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish va harakat ko‘nikmalarini mustahkamlashga ta’siri masalalari kam yoritilgan. Ko‘pgina ishlarda ushbu vositalarning jismoniy tayyorgarlik darajasiga individual va guruhli ta’siri, yoshlar organizmidagi funksional o‘zgarishlar va kasbiy moslashuv mexanizmlari yetarlicha chuqur tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining V/I3/39 “Sport gimnastikasi bilan shug‘ullanuvchi talabalarda kasbiy-pedagogik bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining tayanch-harakat tizimi mushaklari kuchi va kuch chidamliligini amaliy gimnastika vositalari asosida rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

18-21 yoshli talabalarning kuch va kuch chidamliligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan amaliy gimnastika mashqlari majmualarini o‘quv va fakultativ mashg‘ulotlar mazmuniga mos holda ishlab chiqish;

jismoniy tarbiya bo‘yicha o‘quv va fakultativ mashg‘ulotlarda shiddat zonalarini tabaqalashtirib qo‘llash orqali talabalar mashg‘ulot yuklamalarining hajmi va shiddatini optimallashtirish;

shiddat zonalari bo‘yicha mashg‘ulot yuklamalarini tabaqalashtirilgan tartibda qo‘llash asosida oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining kuch va kuch chidamliligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining kuch va kuch chidamliligini rivojlantirishga qaratilgan tabaqalashtirilgan o‘quv dasturini ishlab chiqish hamda uning pedagogik samaradorligini tajriba-sinov natijalari asosida ilmiy asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida pedagogika universitetining Jismoniy madaniyat fakulteti talabalari bilan olib boriladigan jismoniy tarbiya bo‘yicha o‘quv va fakultativ mashg‘ulotlar jarayoni tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti pedagogika universiteti talabalarining kuch va kuch chidamliligini amaliy gimnastika vositalari asosida rivojlantirish mazmuni, vositalari va metodikasidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlar va dasturiy-me’yoriy hujjatlarni nazariy tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma,

[3] Ипполитов Ю.А. Методы обучения гимнастическим упражнениям на основе их моделирования / Ю.А. Ипполитов. – М.: Логос, 2003. – 375 с.; Коренберг В.Б. Надежность решения двигательных задач // Теория и практика физической культуры. 1997. -№ 10. - С. 18-23. Смолевский, В.М. и Гавердовский, Ю.К.. *Спортивная гимнастика (теория и практика).* Киев: Олимпийская литература, 1999. - 466 с., Аркаев Л.Я. Интегральная подготовка гимнастов (на примере сборной команды страны) / Л.Я. Аркаев. – СПб.: Нева, 2004. – 285 с.; Ю.В. Менхин Физическая подготовка в гимнастике / Ю.В.Менхин. - М.: ФиС, 2010. - 224 с.; Розин Е.Ю. Физическая подготовка гимнасток: Учеб. пос. РГАФК, 2012. - 137 с.; Журавина М.Л. Гимнастика: учебник для вузов /под. ред. М.Л. Журавина. М.: Академия, 2018. - 448 с.

intervyu, antropometriya, pedagogik tajriba-sinov hamda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat :

oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining tayanch-harakat apparati mushaklari kuchi va kuch chidamliligini maqsadli rivojlantirish uchun qo‘l, oyoq, qorin, orqa va yelka mushaklariga yo‘naltirilgan amaliy gimnastika mashqlari statik va dinamik ish rejimlari, qo‘shimcha og‘irliklar hamda tana vazni bilan bajariladigan vositalar asosida tizimlashtirilib, mashqlarning takrorlash soni, yuklama hajmi va dam olish oraliqlarini jismoniy tayyorgarlik darajasiga moslashtirish hisobiga kuch tayyorgarligini rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

pedagogika yo‘nalishi talabalarining kasbiy-amaliy harakat tayyorgarligini rivojlantirishda kuch chidamliligiga yo‘naltirilgan ixtisoslashtirilgan o‘quv va fakultativ mashg‘ulotlar mazmuniga gimnastika anjomlari hamda buyumlari bilan bajariladigan amaliy mashqlarni mezosiklning birinchi haftasida maqsadli foydalanish hisobiga mashg‘ulot jarayonini tashkil etish metodikasi takomillashtirilgan;

oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida yuklama hajmi va shiddatini optimallashtirish maqsadida aerob va anaerob energiya ta’minoti nisbati, kislorod iste’moli hamda laktat konsentratsiyasini hisobga oluvchi metodika mashg‘ulot jarayoniga kiritilib, samarali ish vaqtini aniqlash va tiklanish oralig‘ini oqilona tashkil etish orqali sog‘lomlashtirish-tiklanish jarayonining samaradorligini oshirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining maxsus-harakat tayyorgarligini rivojlantirish maqsadida ularning dastlabki jismoniy tayyorgarlik darajasi past, o‘rta va yuqori ko‘rsatkichlar bo‘yicha ajratilib, o‘quv hamda fakultativ mashg‘ulotlarda amaliy gimnastika vositalarini tayyorgarlik darajasiga mos qo‘llashga asoslangan tabaqalashtirilgan dastur joriy etilishi orqali kuch va kuch chidamliligini rivojlantirish samaradorligi oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalarning tayanch-harakat apparati mushaklari kuchi va kuch chidamliligini rivojlantirishga mo‘ljallangan, qo‘l, oyoq, qorin, orqa va yelka mushaklariga yo‘naltirilgan amaliy gimnastika mashqlari majmuasi ishlab chiqilib, uning yuklama hajmi, takrorlash soni va dam olish oraliqlari amaliy mashg‘ulotlar uchun me’yorlashtirilgan;

pedagogika mutaxassisligi talabalarining kasbiy-amaliy harakat tayyorgarligini oshirishga qaratilgan, gimnastika anjomlari va buyumlari bilan bajariladigan mashqlarni mezosiklning birinchi haftasiga joylashtirishni nazarda tutuvchi o‘quv va fakultativ mashg‘ulotlar tizimi ishlab chiqilgan;

jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida aerob va anaerob energiya ta’minoti nisbati, kislorod iste’moli, laktat konsentratsiyasi hamda samarali ish vaqtini hisobga olgan holda yuklama davomiyligi, shiddati va tiklanish oralig‘ini boshqarishga mo‘ljallangan metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

talabalarning dastlabki jismoniy tayyorgarlik darajasini past, o‘rta va yuqori ko‘rsatkichlar bo‘yicha hisobga olgan holda amaliy gimnastika vositalarini o‘quv va fakultativ mashg‘ulotlarda qo‘llashga mo‘ljallangan tabaqalashtirilgan dastur ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi talabalarning jismoniy tayyorgarligi, kuch va kuch chidamliligini rivojlantirish masalalariga oid mahalliy hamda xorijiy ilmiy manbalarga tayanilganligi, tadqiqot vazifalariga mos nazariy va empirik usullarning qo‘llanilganligi, pedagogik tajriba natijalarining reprezentativligi, olingan ma’lumotlarning matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanganligi hamda ishlab chiqilgan metodikaning tegishli ta’lim tashkilotlari amaliyotida sinovdan o‘tkazilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarning jismoniy tarbiyasi nazariyasi va metodikasini amaliy gimnastika vositalari asosida kuch va kuch chidamliligini rivojlantirishga oid ilmiy-uslubiy yondashuvlar bilan boyitilganligi, gimnastika mashqlarini tanlash mezonlari, kuch yo‘nalishidagi mashqlar majmualarini tuzish tartibi, jismoniy tayyorgarlikni baholash testlari hamda mashg‘ulot yuklamalarining maqbul hajmini aniqlashga doir metodik qoidalar asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati talabalarning amaliy gimnastika vositalari yordamida talabalarning kuch, kuch chidamliligi, tezkor-kuch va maxsus-harakat tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulot vositalari, yuklama me’yorlari, tabaqalashtirilgan dastur hamda metodik tavsiyalarni oliy ta’lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya bo‘yicha o‘quv va fakultativ mashg‘ulotlari amaliyotida qo‘llash imkoniyati bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy etish. Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining tayanch-harakat tizimi mushaklari kuchi va kuch chidamliligini amaliy gimnastika vositalari asosida rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalar asosida:

oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining tayanch-harakat apparati mushaklari kuchi va kuch chidamliligini maqsadli rivojlantirish uchun qo‘l, oyoq, qorin, orqa va yelka mushaklariga yo‘naltirilgan amaliy gimnastika mashqlari statik va dinamik ish rejimlari, qo‘shimcha og‘irliklar hamda tana vazni bilan bajariladigan vositalar asosida tizimlashtirilib, mashqlarning takrorlash soni, yuklama hajmi va dam olish oraliqlarini jismoniy tayyorgarlik darajasiga moslashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar “Sport-pedagogik mahoratni oshirish (Gimnastika)” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 1-martdagi 110-sonli buyrug‘iga asosan 110-172-sonli guvohnoma). Natijada, bilim darajasi (21,5%) oshdi, harakat ko‘nikmalari esa (24,8%) yaxshilangan;

pedagogika yo‘nalishi talabalarining kasbiy-amaliy harakat tayyorgarligini rivojlantirishda kuch chidamliligiga yo‘naltirilgan ixtisoslashtirilgan o‘quv va fakultativ mashg‘ulotlar mazmuniga gimnastika anjomlari hamda buyumlari bilan bajariladigan amaliy mashqlarni mezosiklning birinchi haftasida maqsadli foydalanish bo‘yicha takliflar O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida talabalarning mashg‘ulot jarayoniga tatbiq qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi, 2022-yil 16-dekabrdagi 06-01/06/12/9270-son ma’lumotnomasi). Natijada, jismoniy tayyorgarligi 9,23 % ga, koordinasion qobiliyatlari 10,4 % ga oshgan;

oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida yuklama hajmi va shiddatini optimallashtirish maqsadida aerob va anaerob energiya ta’minoti nisbati, kislorod iste’moli hamda laktat konsentratsiyasini hisobga oluvchi metodika mashg‘ulot jarayoniga kiritilib, samarali ish vaqtini aniqlash va tiklanish oralig‘ini oqilona tashkil etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar Chirchiq davlat pedagogika universiteti

talabalarining o‘quv-mashg‘ulot jarayoniga tatbiq qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligining 2022-yil 16-dekabrdagi 06-01/06/12/9270-son ma’lumotnomasi). Natijada, talaba-yigitlarning mashq texnikasi 15 % ga yaxshilangan;

oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining maxsus-harakat tayyorgarligini rivojlantirish maqsadida ularning dastlabki jismoniy tayyorgarlik darajasi past, o‘rta va yuqori ko‘rsatkichlar bo‘yicha ajratilib, o‘quv hamda fakultativ mashg‘ulotlarda amaliy gimnastika vositalarini tayyorgarlik darajasiga mos qo‘llashga asoslangan tabaqalashtirilgan dastur bo‘yicha taklif va tavsiyalar Qo‘qon davlat pedagogika instituti talabalarining o‘quv-mashg‘ulot jarayoniga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligining 2022-yil 16-dekabrdagi 06-01/06/12/9270-son ma’lumotnomasi). Natijada, gimnastika mashqlari texnikasini o‘zlashtirishda harakat tayyorgarligi ko‘rsatkichlari 4,3±0,56 ballga va asosiy jismoniy sifatlar 4,25±0,43 ballga oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot materiallari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 10 ta ilmiy maqola va tezislar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola (3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda), 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida tezislar chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, 128 betni matn, 4 ta rasm, 26 ta jadval, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va ahamiyati, tadqiqotning respublika ilm-fan va texnologiyalar rivojlanishidagi ustuvor yo‘nalishlarga mos kelishi, muammoning o‘rganilish darajasi, dissertatsiya mavzusining tadqiqot o‘tkazilgan oliy ta’lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot rejalariga bog‘liqligi, dissertatsiyada ko‘tarilgan muammoning tadqiq etilganligi, tadqiqotning asosiy maqsadi, vazifalari, ob’ekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqotdan olingan natijalar ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy qiymati, joriy etilishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida axborotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Pedagogika universiteti talabalarining harakat qobiliyatlarini rivojlantirish masalalarini o‘rganilganlik holati”** deb nomlangan birinchi bobida pedagogika oliy ta’lim tashkiloti talabalarining jismoniy tarbiya maqsadi va vazifalari, talabalarning jismoniy tayyorgarlik va harakat salohiyatini oshirish, kuch qobiliyatlarini shakllantirishning uslubiy xususiyatlari keng ochib berilgan.

Mahalliy olimlarning fikriga ko‘ra nazariya va amaliyotda bo‘g‘im harakatchanligining ikki turi mavjud degan xulosaga kelishgan. Jumladan passiv va faol. Passiv harakatchanlik bo‘g‘imlar tuzilishining individual xususiyatlari va mushaklarning holatiga, ya’ni bo‘g‘imlarda harakatga to‘sqinlik qiluvchi omillar va faol harakatchanlik harakatni amalga oshiradigan mushaklarning kuchiga bog‘liq. Bunday g‘oyalarning barcha mantig‘iga qaramay, aynan ular tufayli ushbu harakat qobiliyatini rivojlantirish metodologiyasining yetishmasligi paydo bo‘ladi. Haqiqat shundaki, faol harakatchanlik harakatni amalga oshiradigan mushaklarning ham, unga to‘sqinlik qiladigan shakllanishlarning ham anatomik xususiyatlarini organik ravishda o‘zlashtiradi. Shuning uchun, uslubiy nuqtai nazardan, harakatchanlikni rivojlantirish bu cho‘zilish mashqlari

tufayli harakatdagi to‘siqlarning kamayishi va harakatchanliklarning kuchining oshishi. Ammo ikkinchisining kuchi ularning cho‘zilishiga ham bog‘liqdir degan ma’lumotlar o‘quv-uslubiy manbaalarida keltirilgan (M.N.Umarov, A.K.Eshtayev, D.X.Umarov, B.B.Musayev, S.A.Eshtayev)

Shu bilan birga, alohida mutaxassislar guruhi o‘z tadqiqotlarida sog‘lomlashtirish gimnastikasi yoki har qanday sport turi bilan shug‘ullanuvchilarning harakat qobiliyatlarining ma’lum asosiy jismoniy qobiliyatlari va ularni maqsadli ravishda yaxshilashlariga e’tibor qaratadilar. Shu bilan birga, tanlangan sport turiga urg‘u berib, umumiy chidamlilik qobiliyatiga asoslangan kuch qobiliyatlari, harakatlarni koordinatsion (epchillik) va maxsus chidamlilik ustunlik qilishini ko‘rish mumkin. Ushbu harakat qobiliyatlari guruhi, xususan: koordinatsion harakatlar, bo‘g‘inlardagi harakatchanlik, harakatlanish reaksiyasining tezligi, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchilar uchun harakat funksiyalari va muammoli vazifalarning butun guruhini tartibga solish uchun juda muhimdir, kuch qobiliyatlari va jismoniy bajarilgan mashqlarga chidamlilik qobiliyati sportchining tana tizimlarining faoliyatining ajralmas qismi deb hisoblashgan.

Pedagogika oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining mashg‘ulotlarida yuklamalarning sekin harakati bilan bog‘liq kuchlarning kattaligi maksimal statikning 78-83% oralig‘idadir degan. Shu bilan birga, o‘rganilgan ko‘rsatkichlar juda o‘zgaruvchan. Masalan, maxsus tadqiqotlarda maksimal izometrikaga nisbatan tezlik kuchining individual ko‘rsatkichlari o‘rganilgan mushaklarga, sportchilarning yoshi va jismoniy tayyorgarligiga qarab 29-130% gacha bo‘lgan. Belgining bu o‘zgaruvchanligi, ehtimol, so‘ralayotgan sportchilarning mushak faoliyatining ma’lum bir turiga genetik moyilligi va o‘z-o‘zidan yoki mashg‘ulotlar ta’siri ostida yuzaga keladigan o‘rganilayotgan qobiliyatlarning rivojlanish darajasi bilan izohlashgan (A.V.Niketenko, E.V.Silich, G.I.Semenova).

Xulosa qilib aytganda oliy ta’lim tashkiloti talabalarini maxsus-harakat tayyorgarligini rivojlantirishda gimnastika vositalaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Chunki gimnastika vositalari talabalarni sog‘lomlashtirish harakat faolligini oshirishda muhim hisoblanadi.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqot usullari va tashkil etilishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida Belgilangan vazifalarni hal qilish uchun quyidagi tadqiqot usullari qo‘llanildi: maxsus adabiyot materiallari va kuch qobiliyatlarini rivojlantirish amaliyotini tahlil qilish, jismoniy rivojlanish va harakat tayyorgarligini baholash uchun vosita va usullar kompleksi, pedagogik kuzatuvlar, pedagogik tajriba, matematika-statistik uslublardan foydalanildi.

Tajriba tadqiqotlari uch bosqichda o‘tkazildi. **Birinchi bosqich (2019-2020 yy.)** mavzu yuzasidan maxsus adabiyotlar bo‘yicha o‘rganish va pedagogik ta’lim tashkilotida o‘quv va ixtiyoriy darslarni tashkil etish vazifalarini hal qilindi. Kichik bosqich talabalarining o‘rganilayotgan kontingenti bilan harakat qobiliyati tayyorgarligi darajasi sog‘lomlashtirish va rivojlanish mashg‘ulotlarini o‘tkazish sharoitlarini aniqlash bilan bog‘liq masalalarni hal qilindi. Jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari va 18-21 yoshdagi yoshlarda kuch, kuch-chidamlilik va tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulot majmualarini rivojlantirish zarurligi ko‘rsatilgan. Ish natijasida asosiy mushak guruhlari: yelka, oyoq va qo‘llarning bukish va rostlash harakatlarini o‘rgatish uchun 14 ta mashqlar kompleksi tuzildi. Ushbu kompleksning 12 ta dinamik va 2 tasi statik mashqlardan tashkil topgan. Shu bilan birga, dinamik mashqlarning 6 tasi og‘irliklar bilan, qolgan 6 tasi o‘z vaznidan foydalangan holda bajariladi.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida (2020-2021 yy.) turli darajadagi jismoniy

tayyorgarlikka ega bo‘lgan talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun dastlabki tajriba shakllantirildi va tashkil etildi, shundan 54 nafar jismoniy tayyorgarligi past, 24 nafari o‘rta va 12 nafari yuqori jismoniy tayyorgarlikka ega ekanligi kuzatildi. Ushbu talabalar 90 nafarni tashkil qilib, tajriba guruhiga saralandi. Nazorat guruhi ham shakllantirib, xuddi tajriba guruhi singari shakllantirildi. Tadqiqotga jalb etilgan sinaluvchilardan dastlabki natijalar olindi.

Tadqiqotning uchinchi bosqichida (2021-2022 yy.) pedagogik tajriba o‘tkazildi, uning maqsadi jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida universitet talabalari o‘rtasida kuch qobiliyatlarini kompleks rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan metodika tajriba shaklida sinab ko‘rildi.

Dissertatsiyaning **“Pedagogika oliy ta’lim tashkiloti boshlang‘ich kurs talabalarining kuch va tezkor-kuch tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyasidan foydalanish samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida talabalarning jismoniy va texnik tayyorgarligini dastlabki natijalar tahlili, kuch-chidamlilik qobiliyatini rivojlantirish metodikasi, talabalarning vazni va bo‘yiga qarab kuch qobiliyatlarini shakllantirish bo‘yicha metodikalar keng ochib berilgan.

Biz tadqiqot jalb etilgan sinaluvchilarning jismoniy tayyorgarlik holatini pedagogik nazoratdan o‘tkazish maqsadida dastlabki nazorat mashqlari belgilab olindi. Bu nazorat mashqlari sinaluvchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini baholashga qaratildi. Bunda tadqiqotga jalb etilgan talabalarni ikki guruhga ya’ni tajriba va nazorat guruhi tuzulib, 90 nafardan talabalar sarlanib olindi. Pedagogik tajriba boshida jismoniy tayyorgarligining dastlabki natijalari pedagogik nazoratdan o‘tkazildi.

Olingan natijalardan oliy ta’lim tashkilotlari, o‘rta maxsus o‘quv yurtlari, katta yoshdagi o‘g‘il bolalar uchun umumiy ta’lim maktablari amaliyotida, ixtisoslashtirilmagan universitetda ta’lim olayotganda, shuningdek, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va sport murabbiylarining malakasini oshirish va kasbiy qayta tayyorlash jarayonida foydalanish mumkin.

1-jadval

Pedagogik tajriba boshida sinaluvchilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari (n=180)

T/r	Maxsus jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha nazorat mashqlari	Tadqiqot guruhi		Nazorat guruhi	
		$\overline{X} \pm \sigma$	V, %	$\overline{X} \pm \sigma$	V, %
1	V.M. Abalakov usuli bo‘yicha turgan joydan qo‘llarni siltab yuqoriga sakrash (sm hisobida)	33,15±3,55	10,70	33,55±3,25	9,68
2	D.h. — tayanish (qo‘llar ot tanasida). Ot tanasi bo‘ylab tayanchda qo‘llarda qadam tashlab harakatlanish (ikki doira).	1,5±0,15	10,0	1,55±0,10	6,45
3	10 soniyada qo‘shpoyaga tayanishdan qo‘llarni bukish va yozish (baj. soni)	5,65±1,24	21,94	6,0±1,26	21,0
4	Turnikda 1 daqiqada tortilish (soni)	7,95±0,35	8,43	8,15±0,25	5,80
5	Qo‘llarga tayanib, oyoqlar uchi skamekada, qo‘llarni bukib yozish (baj. soni)	5,15±0,15	2,91	5,25±0,25	4,76
6	D.h. qo‘llar oldinga-yuqoriga, bir qo‘lni siltab, ikkinchisini itarib, qo‘llarda tik turish. Yon tomondagi sherigi yon tomondan qo‘llab-quvvatlaydi, tik turish (s.)	5,55±0,49	8,82	5.45±0,51	9,35
7	O‘ng (chap) oyoqda, shpagat (ball)	5,41±0.87	7,16	5.65±0,37	11,74
8	Ko‘ndalang holda, oldinga egilib shpagat (ball)	4,84±1,11	11,28	4,76±1,09	11,16
9	Arqonga oyoq yordami bilan tirmashib chiqish (h-5 m) (sek)	11,47±0,62	11,86	11,57±1,09	11,65
10	Qo‘shpoyada tayanib turib qo‘llarni bukish va yozish 10 soniyada (baj. soni)	5,65±1,24	21,94	6,0±1,26	21,0

Ushbu jadvalda tajriba va nazorat guruhi sinaluvchilarining dastlabki nazorat mashqlaridan olingan natijalar qayd etildi. Unga ko‘ra, V.M. Abalakov usuli bo‘yicha turgan joydan qo‘llarni siltab yuqoriga sakrash (sm hisobida)da nazorat mashqida tajriba guruhi tadqiqot boshida 33.15 sm. natija ko‘rsatgan bo‘lsa, nazorat guruhida 33,55 sm natija qayd etildi. Tajriba guruhida D.h. — tayanish (qo‘llar ot tanasida). Ot tanasi bo‘ylab tayanchda qo‘llarda qadam tashlab harakatlanish (ikki doira) mashqida tadqiqot boshida 1,5 marta natija ko‘rsatgan bo‘lsa, nazorat guruhida 1,55 marta natija ko‘rsatdi. Qo‘shpoyada tayanib, qo‘llarni 10 soniyada bukish va yozish. (marta) mashqida tajriba guruhida o‘rtacha tadqiqot boshida 5,65 martaga, nazorat guruhi sinaluvchilarining o‘rtacha natijasi 6,0 marta. aniqlandi. 1 daqiqada turnikda tortilish (marta) tadqiqot boshida tajriba guruhi sinaluvchilarining o‘rtacha natijasi 7,95 marta bajargan bo‘lsa, nazorat guruhida esa, tadqiqot boshida 8,15 martani tashkil etdi. Qo‘llarga tayanib, oyoqlar uchi skamekada, qo‘llarni bukish va yozish (marta) nazorat mashqida tajriba guruhida tadqiqot boshida 5,15 marta, nazorat guruhida 5,25 marta bajarishga erishildi. D.h. qo‘llar oldinga-yuqoriga, bir oyoqni siltab, ikkinchisini itarib, qo‘llarda tik turish. Yon tomondagi sherigi yordamida, tik turish (sek.)da tajriba guruhi tadqiqot boshida 5,55 marta bajarildi, nazorat guruhida 5.45 marta. ekanligi aniqlandi. O‘ng (chap) oyoqda, shpagat (ball) nazorat mashqida tajriba guruhida tadqiqot boshida 5.41 ball, nazorat guruhi ushbu nazorat mashqini tadqiqot boshida 5.65 ball aniqlandi. Ko‘ndalang holda, oldinga egilib shpagat (ball) nazorat mashqida tajriba guruhida tadqiqot boshida 4.84 ball, nazorat guruhi ushbu nazorat mashqini tadqiqot boshida 4.76 ball aniqlandi. Arqonga oyoq yordamisiz tirmashib chiqish (h-5 m) (sek) mashqida tadqiqot boshida 11,47 sekundni tashkil qilgan bo‘lsa, tadqiqotdan so‘ng 11,57 sekundni qayd etdi, Qo‘shpoyada tayanib turib qo‘llarni bukish va yozish 10 sekundda (marta) nazorat mashqini tajriba guruhi o‘rtacha tadqiqot oldi 5,65 martani, nazorat guruhida esa, tadqiqot boshida o‘rtacha 6,0 marta bajarganligini ko‘rishimiz mumkin.

Sportchi-talabalarni jismoniy tayyorgarligni nazorat qilish bilan birga, texnik tayyorgarligini ham nazoratdan o‘tkazish muhim sanaladi. Shu bilan birga, tadqiqotga jalb etilgan talabalarni tadqiqot boshida texnik tayyorgarligi bo‘yicha dastlabki nazorat sinovlari o‘tkazildi.

2-jadval

Pedagogik tadqiqot boshida talabalarning texnik tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini o‘zgarishi (n=180)

T/r	Texnik tayyorgarlik bo‘yicha nazorat mashqla	Tadqiqot guruhi		Nazorat guruhi	
		$\overline{X} \pm \sigma$	V, %	$\overline{X} \pm \sigma$	V, %
1	Bir oyoqda siltanib,boshqasida itarilib qo‘llarda turish, sherik yordamida, gilamda 10 urinish (marta)	2,54±0,21	8,26	3,30±0,35	10,60
2	Qo‘shpoyada oyoqlarni kerib tayanib o‘tirish, kuch bilan yelkada tik turish, D.h.da oldinga umbaloq oshish. 10 ta urinish (marta)	3,34±0,35	10,47	4,15±0,85	20,48
3	Tayanchdan kerishib, tos-son bo‘g‘imlarida bukilib (orqaga siltanib), so‘ngra yozilib, oldinga siltanib, orqaga tayanib aylanish - ketma-ket uch marta.	1,55±0,25	16,12	1,68±0,11	6,54
4	Dastakli otda tayanish mashqi: texnikani saqlagan holda har bir oyoqda oldinga va orqaga 3 martadan siltanish	8,94±1,77	8,61	6,90±1,15	18,88
5	Qo‘shpoyada 90˚dan past bo‘lmagan siltanish (10 martadan oldinga va orqaga)	6,09±1,15	18,88	4,84±1,1	22,72


Ushbu natijalarni tahlil etadigan bo‘lsak, bir oyoqda siltanib, boshqasida itarilib qo‘llarda turish, sherik yordamida, gilamda 10 urinish nazorat mashqida tadqiqot boshida tajriba guruhi sinaluvchilari o‘rtacha 2,54 marta bajarilgan bo‘lsa, nazorat guruhida o‘rtacha 3,30 marta natija qayd etildi. Qo‘shpoyada oyoqlarni kerib tayanib o‘tirish, kuch bilan yelkada tik turish, D.h.da oldinga umbaloq oshish. 10 ta urinish (marta) nazorat mashqida tajriba guruhida tadqiqot oldi o‘rtacha 3,34 marta natija qayd etilgan bo‘lsa, nazorat guruhi 4,15 marta natija qayd etildi. Tayanchdan kerishib, tos-son bo‘g‘imlarida bukilib (orqaga siltanib), so‘ngra yozilib, oldinga siltanib, orqaga tayanib aylanish - ketma-ket uch marta.da tajriba guruhida o‘rtacha 1,55 marta, nazorat guruhida o‘rtacha tadqiqot boshida 1,68 marta ekanligi aniqlandi. Dastakli otda tayanish mashqi: texnikani saqlagan holda har bir oyoqda oldinga va orqaga 3 martadan siltanish mashqida tadqiqot boshida o‘rtacha 8,94 marta bajargan bo‘lsa, nazorat guruhida esa tadqiqot boshida 6,90 martani tashkil etdi. Qo‘shpoyada 90˚dan past bo‘lmagan siltanish (10 martadan oldinga va orqaga) mashqida tadqiqot boshida 6,09 marta bajargan bo‘lsa, nazorat guruhida esa tadqiqot boshida 4,84 martani tashkil etdi. Dastlabki olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, tajriba va nazorat guruhida ko‘rsatilgan natijalar bir-biridan katta farq qilmadi. Bu esa tadqiqotni boshlashimizga asos bo‘ladi.

Tadqiqotimiz davomida talabalarni maxsus-harakat tayyorgarligini rivojlantirish uchun mushak guruhlariga maxsus vositalar saralandi. Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarida talabalarining maxsus-harakat tayyorgarligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim jarayonida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, zamonaviy o‘quv tashkilotlarida yoshlarning jismoniy faolligini oshirish, ularning jismoniy sifatlarini maqsadli rivojlantirishda amaliy gimnastikaning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, maxsus tayyorgarlik darajasini oshirish uchun tanlangan mashqlar majmuasi talabalar organizmining individual xususiyatlari va mushak guruhlari faoliyatiga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

Tadqiqotimiz davomida oliy ta’lim tashkiloti talabalari uchun mo‘ljallangan amaliy gimnastika vositalari asosida mushak guruhlari uchun maxsus mashqlar majmuasi ishlab chiqildi hamda ularning tatbiq etish uslublari bayon etildi. Biz tomonimizdan taklif etilgan metodika talabalarning umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish bilan birga, maxsus-harakat ko‘nikmalarini shakllantirish, harakat koordinatsiyasini yaxshilash, mushak kuchi va chidamliligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

3.4-rasmda keltirilgan mushak guruhlari uchun mo‘ljallangan mashqlar majmuasi talabalarni har tomonlama tayyorlashga qaratilgan bo‘lib, unda asosiy e’tibor tana qismlari, oyoq, qo‘l, orqa va yelka mushaklarini faollashtiruvchi mashqlarga qaratildi. Har bir mashqning takrorlash soni, yuklama miqdori, bajarilish shakli va dam olish oralig‘i ilmiy asoslangan tarzda belgilab, metodik tavsiyalar shaklida shakllantirildi.

Mazkur metodika amaliy tajriba asosida sinovdan o‘tkazilib, olingan natijalar asosida uning samaradorligi baholandi. Mashqlar majmuasining qo‘llanishi orqali talabalarda nafaqat jismoniy sifatlar, balki o‘z-o‘zini nazorat qilish, mehnatga layoqatlilik, mustahkam sog‘liq kabi ijtimoiy-psixologik ko‘nikmalar ham rivojlantirish imkoniyatlarini oshiradi.



1-rasm. Talabalarni maxsus-harakat tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan mushak guruhlari uchun maxsus mashqlar majmuasi

Talabalarni maxsus-harakat tayyorgarligini rivojlantirish uchun mushak guruhlari uchun maxsus mashqlar majmuasidan foydalanish orqali maxsus-harakat tayyorgarlik darajasi oshadi. Tajriba guruh mashg‘ulotlarida qo‘llanilgan mushak guruhlari uchun mo‘ljallangan maxsus mashqlar majmuasi orqali talabalar asosiy jismoniy sifatlar kuch, chidamlilik, tezkorlik, muvozanat va koordinatsiya ko‘rsatkichlari bo‘yicha nazorat guruhiga nisbatan yuqori natijalarga erishish imkonini berdi. Bu esa metodikaning samarali ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga mushak guruhlarining funksional faolligi yaxshilash imkonini oshiradi. Tana qismlari, pastki va yuqori ekstremitalar, orqa va yelka mushaklari uchun tuzilgan mashqlar majmuasi ularning tonusini oshirib, tana holati, holatni ushlash va muvozanatni saqlash qobiliyatlarini rivojlantirib boradi. Bundan tashqari talabalarda jismoniy ish faoliyatiga moslashuv kuchaydi. Talabalar organizmining yuklamaga bardoshliligi ortdi, mashqlar natijasida yurak-qon tomir, nafas olish va mushak tizimi ko‘rsatkichlari yaxshilandi. Bu esa talabalarning funktsional imkoniyatlari va ish qobiliyatini oshirdi. Ushbu majmuadan muntazam foydalanish orqali psixologik barqarorlik va motivatsiya kuchaydi. Amaliy mashg‘ulotlar o‘z-o‘zini baholash, mustahkam irodani shakllantirish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga yordam berdi. Talabalarda jismoniy faollikka ijobiy munosabat shakllandi, bu esa ularning sog‘lom turmush tarziga intilishini kuchaytiradi. O‘quv jarayonining samaradorligi ham ortdi. Maxsus-harakat tayyorgarligini oshirishga qaratilgan metodika asosida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga nisbatan qiziqish va ishtirok faolligi sezilarli darajada oshadi. Bu esa ta’lim-tarbiya sifatini umumiy ijobiy tomonga o‘zgartirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotimiz davomida, shug‘ullanuvchilarning jismoniy tarbiya darslarida qo‘llaniladigan vosita va usullari tana mushaklari guruhlarining kuch qobiliyatlari darajasini sezilarli darajada oshirdi. Oliy ta’lim tashkilotlari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida o‘tkazilgan tadqiqotlar jarayonida ushbu ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, kelgusidagi faoliyat talablarini hisobga olgan holda, ushbu qobiliyatni maqsadli ravishda rivojlanmasdan, tananing turli qismlarining kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar ustunlik qiladi. Shu bilan birga, kuch qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida ular statistikani rivojlantirishga e’tibor bermasdan, dinamik kuchni rivojlantirishga e’tibor beradi.

Kuch-chidamlilik qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasini hal qilish masalalari, belgilangan vazifalarni bajarishda harakatlarni takroriy qo‘llash, shuningdek, bu texnikadan imkoniyatlar chegarasida foydalanish bilan belgilanadi.

Har bir harakat kuch qobiliyatlarini rivojlantirishda ma’lum ko‘rsatkichlarga erishishga imkon beradi. Mashg‘ulotlar davomida kuch mashqlari maksimal kuch va kuch-chidamlilikni rivojlantirishga e’tbior qaratildi. Mashg‘ulotning samaradorligi ko‘p jihatdan, turli xil dinamik yo‘nalishdagi mashqlar guruhini aralashtirishga bog‘liq bo‘ladi.

Biz tomonimizdan pedagogika oliy ta’lim tashkilotida mashg‘ulotlar jarayonida talabalar kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar majmuasi ishlab chiqildi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Pedagogika oliy ta’lim tashkilotda mashg‘ulotlar jarayonida 18-21 yoshli yigitlarda kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar majmuasi

T/r	Kuch mashqlari	Kuch va kuch chidamliligini rivojlantirish usullari
1.	Chalqancha yotgan holatdan, tizzalar bukilgan - gavdani ko‘tarish	“To‘liq charchagunga qadar” dinamik va submaksimal zo‘riqishlar usuli
2.	Qiya gimnastika o‘rindig‘ida chalqancha yotgan holatdan tizzalarni ko‘krakka ko‘tarish	“To‘liq charchagunga qadar” dinamik va submaksimal zo‘riqishlar usuli
3.	Gimnastika o‘rindig‘iga mahkamlangan oyoqlar bilan qorinda yotgan holatdan gavdani ko‘tarish	“To‘liq charchagunga qadar” dinamik va submaksimal zo‘riqishlar usuli
4.	Baland turnikda osilish holatidan tortilish (keng va tor ushlash bilan)	“To‘liq charchagunga qadar” takroriy va submaksimal zo‘riqishlar usuli
5.	Oyoq kaftining ichki tomonlariga o‘tirgan holatdan o‘tirib-turish	“To‘liq charchagunga qadar” takroriy va submaksimal zo‘riqishlar usuli
6.	Yotgan holatda oyoqlarni bukish	“To‘liq charchagunga qadar” takroriy va submaksimal zo‘riqishlar usuli
7.	Trenajyorda oyoqlarni birlashtirish va ajratish	“To‘xtagunga qadar” takroriy va chegarasiz kuch sarflash usuli
8.	Gimnastika devori yonida tik turgan holda (yoki dastgoh yonida) oyoq uchida ko‘tarish va tushirish	“To‘xtagunga qadar” dinamik va chegarasiz kuch sarflash usuli
9.	Gimnastika devoriga orqa bilan tayanib, qo‘llarni sekin bukib-yozish (3-5 kg li gantellar).	“To‘xtagunga qadar” takroriy va chegarasiz kuch sarflash usuli
10.	Qiya gimnastika o‘rindig‘ida yotib, 3-5 kg og‘irlikdagi gantellar bilan qo‘lni bukish va yozish.˚	“To‘xtagunga qadar” takroriy va chegarasiz kuch sarflash usuli
11.	Qo‘shpoyada tayanib qo‘llarni bukish va yozish	“To‘xtagunga qadar” takroriy va chegarasiz kuch sarflash usuli
12.	Parallel qo‘shpoyada bilakka tayanib oyoqlarni ko‘tarish	“To‘xtagunga qadar” takroriy va chegarasiz kuch sarflash usuli
13.	Baland turnikda to‘g‘ri oyoqlarni 90° burchak ostida ushlab osilish	Takroriy
14.	O‘tirib-turish trenajyorining platformasiga yelkalar bilan tayanish	Takroriy

Yuqoridagi jadvalda amaliy mashg‘ulotlar davomida pedagogik ta’lim tashkiloti talabalari uchun kuch va kuch-chidamlilik qobiliyatini birga shakllantirish uchun taklif qilingan bir qator mashqlar va ularni amalga oshirish usullari guruhi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Jismoniy tarbiya fakulteti talabalarining o‘quv jarayoniga amaliy gimnastika vositalari yordamida kuch va kuch-chidamlilik qobiliyatini birga shakllantirish texnologiyasini joriy etish mashg‘ulot amaliyotida mavjud bo‘lgan kerakli qobiliyatni rivojlantirish usullaridan uzoqlashish imkonini beradi va mashg‘ulotlarning samaradorligini oshiradi. Talabalarni maxsus-harakat tayyorgarligini statik va dinamik kuchni bevosita rivojlantirishga qaratilgan usullardan foydalanildi. Kuch-chidamlilik qobiliyatini samarali rivojlantirish usullari ham muhim hisoblanadi.

Bir mashg‘ulot davomida o‘rganilayotgan qobiliyatni rivojlantirish, ya’ni talabaning tana tizimi mushaklarining katta guruhini jalb qilgan holda dinamik yoki statik kuchning rivojlanishi (mezosiklning birinchi haftasi), va keyinchalik maxsus jihoz yoki predmetlar bilan tegishli mashqlar guruhidan foydalangan holda kuch-chidamlilik qobiliyatini rivojlantirish usullarining ma’lum bir guruhini amalga oshirishda muhim hisoblanadi.

So‘nggi 30 yil ichida jismoniy mashqlarni tasniflashda ularning ta’sirining xarakteri va “Ular birinchi navbatda insonning jismoniy qobiliyatlariga qo‘yadigan talablari” asosiy (agar yagona bo‘lmasa) mezon sifatida qo‘llanilgan. L.P.Matveyev (2021)ning bu yondashuvga ko‘ra, tasnifda to‘rt jismoniy mashqlar guruhi mavjud:

1) maksimal intensivlik yoki quvvat va kuch bilan tavsiflangan tezlik-kuch mashqlari (masofaga yugurish, uloqtirish, sakrash, shtanga ko‘tarish va b.);

2) siklik harakatlarda chidamlilikni ustun ko‘rsatishni talab qiladigan mashqlar turlari (o‘rta va uzoq masofalarga yugurish, chang‘i, yurish, suzish, tegishli masofalarga eshkak yeshish va hokazo);

3) qat’iy belgilangan harakatlar dasturida asosan, koordinatsion va boshqa qobiliyatlarni rivojlantirishni talab qiladigan mashqlar turlari (gimnastika va akrobatika mashqlari, suvga sho‘ng‘ish, figurali uchish, sinxron suzish va boshqalar);

4) o‘zgaruvchan harakat rejimlari sharoitida jismoniy qobiliyatlarni har tomonlama namoyish etishni talab qiladigan mashqlar turlari, vaziyatlar va harakat shakllarining doimiy o‘zgarishi (kurash, boks, qilichbozlik, sport va boshqalar).

Turli tasniflash xususiyatlari orasida mashg‘ulot yuklamalarining intensivligi juda muhim bo‘lib, ularni ma’lum holatlarga bog‘lash imkonini beradi.

Beshta yuklama intensivligi holatlari mavjud (4-jadvalga qarang).

1. Aerob tiklanish - yog‘lar (100%), glikogen va qon glyukoza tufayli aerob quvvat ta’minoti (50%).

2. Aerob rivojlanish (davomiyligi 4 soatgacha) - glikogen, yog‘lar va qon glyukoza tufayli quvvat ta’minoti asosan aerob (95%).

3. Aralash aerob-anaerob (10 daqiqadan 2 soatgacha) – quvvat ta’minoti (mos ravishda 90:10 yoki 85:15 % nisbatida) bir xil komponentlar tufayli.

4. Anaerob glikolitik (2-5 daq.) – quvvat ta’minoti asosan aerobdir (70:30,40:60, 20:80) glikogen tufayli.

5. Anaerob alaktat (15 s gacha) - adenozin trifosfat, kreatin fosfat va glikogen tufayli quvvat ta’minoti asosan anaerob (95%) hisoblanadi.

Ushbu yuklamalar turli darajadagi kislorod iste’moli, turli xil yurak urish tezligi, faoliyatning turli turdagi mushak tolalarining turli darajadagi ishtiroki va boshqa belgilar bilan birga keladi.

Yuklama intensivligini tasniflash muayyan harakat qobiliyatlarini rivojlantirish uchun maqsadli foydalaniladigan bunday mashq rejimlarini tanlash imkonini berishi juda muhimdir.

Bunday tasnif faqat sport mashg‘ulotlarida aks etgandek tuyulishi mumkin. Bu faqat qisman to‘g‘ri: birinchidan, har qanday holatda, bu yuklama darajasining davomiyligi, intensivligi va xarakteri bo‘yicha belgilashga imkon beradi; ikkinchidan, sog‘lomlashtirish va tiklash darslarida, ya’ni sportda ham, jismoniy tarbiyada ham tegishli vazifalarni hal qilishga imkon beradi.

Tadqiqotimiz davomida oliy ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya bo‘yicha akademik mashg‘ulotlarda past, o‘rta, yuqori darajadagi tayyorgarlikka ega bo‘lgan yigitlar uchun kuch, kuch chidamlilikni rivojlantirish dasturi ishlab chiqildi. Oliy ta’lim tashkilotlarida o‘quv jarayoni doirasida talabalar bilan olib boriladigan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari ularning harakat faoliyatini takomillashtirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va funksional imkoniyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasi turlicha bo‘lishi tufayli, past tayyorgarlikka ega yoshlar bilan mashg‘ulotlarda individual yondashuv va bosqichma-bosqich yuklama berish tamoyillari asosida tuzilgan metodika ishlab chiqildi. Tadqiqot doirasida past darajadagi tayyorgarlikka ega bo‘lgan yigitlar uchun kuch sifatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar majmuasi ishlab chiqildi. Oliy ta’lim tashkilotlaridagi pas darajadagi tayyorgarlikka ega bo‘lgan yigitlar uchun mushak guruhlarini kompleks rivojlantirishga qaratilgan 14 ta mashqdan iborat bo‘lib, ular tananing qismlari, qo‘l, oyoq, orqa va qorin mushaklarini faol harakatlantirishga mo‘ljallangan. Shu bilan birga dasturda yuklama va dam olish me’yorlari, har bir mashq uchun takrorlanishlar soni, bajarish davomiyligi, og‘irlik miqdori va seriyalar orasidagi dam olish vaqti individual imkoniyatlarga mos tarzda belgilandi. Ushbu dasturda statik va dinamik mashqlar uyg‘unlikda amalga oshirildi. Bunda mashqlar turli funksional holatlarda (turib, yotib, osilib, o‘tirib) bajarilishi orqali mushaklar tonusini, kuch sifatlarini va harakat koordinatsiyasini yaxshilashga xizmat qiladi. Dasturning ahamiyatli tarafi har bir talaba o‘z vazniga nisbatan vositalardan foydalanadi. Dasturda ko‘plab mashqlar o‘z vazni yoki minimal jihozlar asosida tuzilgan bo‘lib, talabalar uchun oson moslashuvchanlik va keng tatbiq etish imkonini beradi. Ushbu metodika amaliy tajriba asosida qo‘llanilib, har bir mashqning takrorlashlar soni, bajarilish texnikasi, mashg‘ulot vaqti, dam olish oralig‘i aniq me’yorlarga asoslangan holda shakllantirildi. Dastur doirasida kuch sifatini rivojlantirish bilan birga, organizmning umumiy jismoniy holatini yaxshilash, asosiy harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish ham ko‘zda tutildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ushbu kuchni rivojlantiruvchi mashqlar majmuasi past darajadagi tayyorgarlikka ega bo‘lgan talabalar uchun samarali, xavfsiz va pedagogik jihatdan asoslangan yondashuv bo‘lib xizmat qildi (3.4-jadvalga qarang).

4-jadval

Oliy ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya bo‘yicha akademik mashg‘ulotlarda past darajadagi tayyorgarlikka ega bo‘lgan yigitlar uchun kuchni rivojlantirish dasturi

T/r	Mashq	Og‘irlik miqdori	Takrorlanishlar	Mashq vaqti	Seriyalar orasidagi dam
1.	D.h. tik turib, shtangani uzatilgan qo‘llarda ushlab, dastlabki holatda shtangani ko‘tarish va tushirish.	maksimumdan 50-60%	8-9	20-25 s	3-4 daq
2.	Qiya gimnastika o‘rindig‘ida chalqancha yotgan holatdan tizzalarni ko‘krakka ko‘tarish	O‘z vazni	Maksimalning 50-60 foizi	10-15 soniya	3-4 daqiqa
3.	Gimnastika devori yonida turgan holatdan oyoq uchida ko‘tarilish	Maksimalning 50-60 foizi	8-9	20-25 soniya	3-4 daqiqa
4.	Qiya gimnastika o‘rindig‘ida yotib, qo‘llarni shtanga bilan to‘g‘ri bukish	Maksimalning 50-60 foizi	8-9	20-25 soniya	3-4 daqiqa
5.	Tizzadan bukilgan oyoqlar bilan chalqancha yotgan holatdan gavdani ko‘tarish	O‘z vazni	Maksimalning 50 foizi	10-15 soniya	3-4 daqiqa
6.	Tovon bilan o‘tirgan holatdan turish	Maksimalning 50-60 foizi	8-9	20-25 soniya	3-4 daqiqa
7.	Baland turnikda osilib, to‘g‘ri oyoqlarni 90° burchak ostida ushlash (s).	O‘z vazni	1	3 soniya	3-4 daqiqa
8.	Parallel qo‘shpoyada erkin ushlashda qo‘llarni bukish va yozish	O‘z vazni	50-60 % maksimaldan	10-15 soniya	3-4 daqiqa
9.	Qorinda yotgan holatdan gavdani ko‘tarish, oyoqlar sherik tomonidan fiksatsiya qilinadi.	O‘z vazni	Maksimalning 50-60 foizi	10-15 soniya	3-4 daqiqa
10.	Chalqancha yotgan holatda oyoqlarni bukish va yozish.	Maksimalning 50-60 foizi	8-9	20-25 soniya	3-4 daqiqa
11.	Gimnastika tayoqchasiga tayanib, qo‘llarni bukish va yozish.	O‘z vazni	Maksimalning 50-60 foizi	10-15 soniya	3-4 daqiqa
12.	Baland turnikda keng va tor ushlash bilan tortilish	O‘z vazni	Maksimalning 50-60 foizi	10-15 soniya	3-4 daqiqa
13.	Gimnastika trenajyorida osilib turgan holatda oyoqlarni birlashtirish va ajratish	Maksimalning 50-60 foizi	8-9	20-25 soniya	3-4 daqiqa
14.	Ko‘p funksiyali trenajyorda belgilangan vazn bilan yelkaga tayanib o‘tirib-turish	O‘z vazni	1	3 soniya	3-4 daqiqa

Izoh: Jismoniy tarbiya bo‘yicha akademik mashg‘ulotlardagi o‘rta, yuqori va boshqa darajalariga mo‘ljallangan dastur dissertatsiya ishida keng bayon etilgan.

Yuqori tayyorgarlikka ega bo‘lgan yigitlar uchun tuzilgan kuch chidamliligini rivojlantirish dasturi talabalarning jismoniy sifatlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, intensiv va uzoq muddatli yuklamalarga moslashtirilgan mashqlar asosida shakllantirildi. Mazkur metodikaning qo‘llanilishi orqali quyidagi asosiy ilmiy-amaliy natijalarga erishish imkoniyatlarini oshiradi. Jumladan kuch chidamliligi parametrlarining sifatli o‘sishi, har bir mashqni yuqori takrorlanishda va 60–80 soniya davomida bajarish, qisqa dam olish oraliqlari bilan uyg‘unlashuvi natijasida mushaklar uzoq davom etadigan ishga moslashadi. Talabalarda dinamik kuch harakatlarini ushlab turish va takroriy yuklamalarga barqaror javob qaytarish qobiliyati sezilarli darajada yaxshilandi. Mushak to‘qimalarining anaerob glikolitik energiya tizimi faoliyati faollashib boradi. Shu bilan birga yuqori intensivlikdagi jismoniy faoliyatga funksional moslashuv, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining ish qobiliyati ortadi. Bu esa maksimal kislorod iste’molini oshishiga va yurak ritmining shakllanishiga olib keldi. Kuch va chidamlilik ko‘rsatkichlarida ham ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi. Mushaklarning ishlash mexanikasi va chidamliligi yaxshilandi. Yuqori takroriy yuklamalar mushaklarning tonik va anaerob energiya qismlarini faollashtirdi, bu esa holatni uzoq ushlab turish, muvozanat va barqarorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Oliy ta’lim tashkiloti talabalarining tanasi yuklamaga moslashib, harakat faoliyati yaxshilandi ya’ni, kamroq energiya sarfiga ko‘proq ish bajarish qobiliyati rivojlantirishga erishiladi. Sportga tayyorlik va musobaqa salohiyati oshadi. Kuch chidamliligiga asoslangan mashqlar majmuasi sportga yaqinlashgan faoliyatlarda (masalan, sport o‘yinlari, yugurish, sakrash) uzoq davom etadigan harakatlar paytida charchashga chidamlilikni oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Bu esa talabalar o‘rtasida raqobatbardosh jismoniy tayyorgarlik darajasi shakllanishiga xizmat qiladi. Ushbu dasturlardan foydalanishda talabalarga psixologik motivatsion ta’siri ham alohida ahamiyatga ega. Yuqori yuklamalarga bardosh berish orqali talabalarda irodaviy sifatlar, qat’iyatlilik, o‘ziga ishonch va ijobiy ruhiy holat shakllandi. Mashqlar orqali o‘zini yengib o‘tish holatlari talabalarda motivatsiyani oshiradi, bu esa jismoniy faollikka barqaror ijobiy munosabatning shakllanishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, kuch, kuch chidamliligini rivojlantiruvchi metodika, past, o‘rta, yuqori jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lgan talabalar uchun intensiv, fiziologik asoslangan, psixologik mustahkamlikni oshiruvchi va har tomonlama harakat salohiyatini kengaytiruvchi ilmiy yondashuv bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu dastur sportga ixtisoslashmagan talabalar orasida ham joriy etilishi mumkin bo‘lib, ularning sog‘lig‘i, jismoniy tayyorgarligi va sog‘lom turmush tarzini to‘g‘ri rejalashtirish imkoniyatlarini oshiradi.

Dissertatsiyaning **“Pedagogika oliy ta’lim tashkiloti talabalarining kuch qobiliyatlarini kompleks rivojlantirishda ishlab chiqilgan metodikani tajribaviy asoslash”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida kuch qobiliyatlarini rivojlantirishda kompleks myetodika mashqlarini bajarish jarayonida mashg‘ulot yuklamasining maqbul hajmini aniqlash, jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga mo‘ljallangan bir o‘quv-mashg‘ulot davomida jismoniy yuklamani aniqlashga qaratilgan pedagogik tadqiqotlar olib borilgan.

Pedagogika universiteti talabalari o‘rtasida kuchni rivojlantirish bo‘yicha kompleks metodikaning samaradorligini baholashga qaratilgan tadqiqot davomida olingan pedagogik tajriba natijalari tahlil etildi. Pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarining tadqiqot oxirida yana bor jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari nazoratdan o‘tkazildi.


5-jadval

Pedagogik tajriba davomida talabalarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini o‘zgarishi (n=180)

T/r	Maxsus jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha nazorat mashqlari	Guruh	Tajriba boshi		Tajriba oxiri		Ishonchlilik	
			$\overline{X}$ ±σ	V, %	$\overline{X}$ ±σ	V, %	t	P
1	V.M. Abalakov usuli bo‘yicha turgan joydan qo‘llarni siltab yuqoriga sakrash (sm hisobida)	TG	33,15±3,55	10,70	39,35±3.47	8,81	2,87	<0,01
		NG	33,55±3,25	9,68	37.15±4.05	10,90	1,80	>0,05
2	D.h. — tayanish (qo‘llar ot tanasida). Ot tanasi bo‘ylab tayanchda qo‘llarda qadam tashlab harakatlanish (ikki doira).	TG	1,5±0,15	10,0	2,7±0,15	5,55	2,28	<0,05
		NG	1,55±0,10	6,45	2,0±0,25	12,5	1,74	>0,05
3	10 soniyada qo‘shpoyaga tayanishdan qo‘llarni bukish va yozish (baj. soni)	TG	5,65±1,24	21,94	8,79±0,25	2,84	2,92	<0,01
		NG	6,0±1,26	21,0	7.75±0.65	8,38	1,72	>0,05
4	10 soniyada turnikda tortilish (soni)	TG	7,95±0,35	8,43	12,05±0,35	5,69	2,01	<0,05
		NG	8,15±0,25	5,80	10,25±0,55	10,89	1,91	<0,05
5	Qo‘llarga tayanib, oyoqlar uchi skamekada, qo‘llarni bukib yozish (baj. soni)	TG	5,15±0,15	2,91	8,25±0,76	9,21	2,15	<0,05
		NG	5,25±0,25	4,76	7,65±0,56	7,32	1,80	>0,05
6	D.h. qo‘llar oldinga-yuqoriga, bir qo‘lni siltab, ikkinchisini itarib, qo‘llarda tik turish. Yon tomondagi sherigi yon tomondan qo‘llab-quvvatlaydi, tik turish (s.)	TG	5,55±0,49	8,82	8.65±0.45	5,20	2,32	<0,05
		NG	5.45±0,51	9,35	7.05±0.65	9,21	1,77	>0,05
7	O‘ng (chap) oyoqda, shpagat (ball)	TG	5.41±1,11	11,28	8.45±0,37	5,56	2,13	<0,05
		NG	5,65±1,09	11,16	6,41±0.87	11,74	1,84	>0,05
8	Ko‘ndalang holda, oldinga egilib shpagat (ball)	TG	4,84±1,11	11,28	7,15±0,37	5,56	2,13	<0,05
		NG	4,76±1,09	11,16	5,51±0,87	11,74	1,84	>0,05
9	Arqonga oyoq yordami bilan tirmashib chiqish (h-5 m) (sek)	TG	11,47±1,12	11,86	9,05±0,47	6,66	2,32	<0,05
		NG	11,57±1,09	11,65	11,15±0,97	11,34	1,81	>0,05
10	Qo‘shpoyada tayanib turib qo‘llarni bukish va yozish 10 soniyada (baj. soni)	TG	2,15±0,15	6,97	5,95±0,17	2,85	2,34	<0,05
		NG	2,30±0,25	10,86	4,45±0,35	7,05	1,89	>0,05

Ushbu jadvaldan koʻra, V.M.Abalakov lentasi bilan qoʻllarda siltanib joydan yuqoriga sakrashda nazorat mashqida tajriba guruhi tadqiqot boshida 33,15 sm. natija koʻrsatgan boʻlsa, tadqiqot oxiriga kelib 39,35 sm. natija qayd etildi. Nazorat guruhida esa, tadqiqot boshida 33,55 sm, tadqiqotdan keyin 37.15 sm. Ekanligi aniqlandi. Tajriba guruhida baland arqonga yugurib kelib kerishib sakrash mashqida tadqiqot boshida 155,0 sm, tadqiqot so'ngiga kelib 175,16 sm natijaga yaxshilandi. Ushbu mashq boʻyicha, nazorat guruhida 156,1 sm.ga, tadqiqot oxiriga kelib 166,7 ga oʻzgardi. Otda qoʻllarga tayanib yurish mashqida tajriba guruhida oʻrtacha tadqiqot boshida 1,5 marta.ga, tadqiqot oxiriga kelib 2,7 marta.ga oʻsganligi aniqlandi. Xuddi shu nazorat mashqida nazorat guruhi sinaluvchilarining oʻrtacha natijasi tadqiqot boshida 1,55 marta.ga va tadqiqot oxiriga kelib 2,0 marta.ga oʻzgarganligi aniqlandi. 10 soniyada qoʻshpoyaga tayanishdan qoʻllarni bukish va yozishda tadqiqot boshida tajriba guruhi sinaluvchilarining oʻrtacha natijasi 5,65 marta bajarga boʻlsa, tadqiqot oxiriga kelib 8,79 marta bajarishga erishildi. Nazorat guruhida esa, tadqiqot boshida 6,0 marta, tadqiqot oxirida 7.75 martaga oʻzgarganligi aniqlandi. 10 soniyada turnikda tortilish nazorat mashqida tajriba guruhida tadqiqot boshida 4,15 martani, tadqiqot oxiriga kelib 6,15 marta kuzatildi. Nazorat guruhida tadqiqot boshiga kelib 4,31 martani va tadqiqot oxirida 5,05 martani tashkil etildi. Qoʻllarga tayanib, oyoqlar uchi skameykada, qoʻllarni bukib yozish nazorat mashqida tajriba guruhida tadqiqot boshida 5,15 marta, tadqiqot oxiriga kelib 8,25 martaga yaxshilandi. Ushbu nazorat mashqini nazorat guruhida 5,25 martani, tadqiqot oxiriga kelib 7,65 marta bajarishga erishildi. Sherik yordamida qoʻllar va boshda turib kuch bilan qoʻllarga turishda tajriba guruhi tadqiqot boshida 5,55 marta bajarildi, tadqiqot oxiriga kelib 8.65 martaga oʻzgarganligi aniqlandi. Nazorat guruhida esa, tadqiqot boshida oʻrtacha 5.45 marta bajargan boʻlsa, tadqiqot oxirida 7.05 martaga oʻzgargan. Shpagat ochilishini sinovdan oʻtkazilganda tajriba guruhida tadqiqot boshida 9.84 sm.ni, tadqiqot oxiriga kelib 6.65 sm. ekanligi aniqlandi. Nazorat guruhida 9,76 sm.ni tadqiqot oxiriga kelib 7,41 sm. natija qayd etildi. 4 m. baland arqonga oyoqlar yordamisiz vaqtga chiqish nazorat mashqida tajriba guruhida tadqiqot boshida 9.44 soniya, tadqiqot oxiriga kelib 7,05 soniyaga yaxshilandi. Nazorat guruhi ushbu nazorat mashqini tadqiqot boshida 9.35 soniyaga, tadqiqot oxirida esa 8.55 soniyaga yaxshilanganligi aniqlandi. Qoʻshpoyada orqaga tebranib qoʻllarni bukish, oldinga tebranishda qoʻllarni yozish nazorat mashqini tajriba guruhi oʻrtacha tadqiqot oldi 2,15 martani, tadqiqot oxiriga kelib 5,95 martaga yaxshilanganligi aniqlandi. Nazorat guruhida esa, tadqiqot boshida oʻrtacha 2,30 marta bajargan boʻlsa, tadqiqot oxirida 4,45 martaga oʻzgarganligini koʻrishimiz mumkin.

Ushbu olingan natijalarni oʻsish dinamikasi yanada aniqroq bilish uchun diagramma koʻrinishida ham ifodalandi. Ushbu diagrammada natijalar nisbiy oʻsishi keltirilgan.



2-rasm. Pedagogik tajriba davomida talabalarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlar dinamikasi (n=180)

Izoh: 1. V.M.Abalakov lentasi bilan qo‘llarda siltanib joydan yuqoriga sakrash (sm); 2. Baland arqonga yugurib kelib kerishib sakrash (sm); 3. Otda qo‘llarga tayanib yurish (baj. soni); 4. 10 soniyada qo‘shpoyaga tayanishdan qo‘llarni bukish va yozish (baj. soni); 5. 10 soniyada turnikda tortilish (soni); 6. Qo‘llarga tayanib, oyoqlar uchi skameykada, qo‘llarni bukib yozish (baj. soni); 7. Sherik yordamida qo‘llar va boshda turib kuch bilan qo‘llarga turish (soni); 8. Shpagat (sm); 9. 4 m baland arqonga oyoqlar yordamisiz vaqtga chiqish (soniya); 10. Kuch bilan bukilib to‘g‘ri qo‘llar va oyoqlar bilan (stoyalkaga) qo‘llarda turish (soni)

Ushbu diagrammada V.M.Abalakov lentasi bilan qo‘llarda siltanib joydan yuqoriga sakrash nazorat mashqida tajriba guruhida 18.70 % ga, nazorat guruhida 10.73 % nisbiy o‘sishi kuzatildi. Baland arqonga yugurib kelib kerishib sakrash nazorat mashqida tajriba guruhida 13,01 % ga yaxshilandi, nazorat guruhida 6,79 % ga o‘zgargan. Otda qo‘llarga tayanib yurish mashqida 80 % va nazorat guruhida 29,03 % yaxshilandi. 10 soniyada qo‘shpoyaga tayanishdan qo‘llarni bukish va yozish nazorat mashqida tajriba guruhida 55,58 % ga o‘sganligini va nazorat guruhida 29,17 % ga yaxshilandi. 10 soniyada turnikda tortilish mashqini tajriba guruhi sinaluvchilarida 48,19 % ga hamda nazorat guruhida esa 27,17 % ga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin. Qo‘llarga tayanib, oyoqlar uchi skameykada, qo‘llarni bukib yozish nazorat mashqida tajriba guruhida 60,19 % ga, nazorat guruhida 45,71 % ga yaxshilandi. Sherik yordamida qo‘llar va boshda turib kuch bilan qo‘llarga turish nazorat mashqida tajriba guruhi natijalari 55,86 % ga va nazorat guruhida 29,36 % ga o‘zgardi. Shpagat nazorat mashqida 32,42 % ga, nazorat guruhida 24,08 % ga yaxshilandi. 4 m baland arqonga oyoqlar yordamisiz vaqtga chiqish nazorat mashqida 25,85 % ga, nazorat mashqida 8,56 % ga yaxshilandi. Qo‘shpoyada orqaga tebranib qo‘llarni bukish, oldinga tebranishda qo‘llarni yozish nazorat mashqida tajriba guruhida 176,74 % ga, nazorat guruhida 93,48 % ga nisbiy o‘sishda o‘zgarishlar kuzatildi.

Shu bilan birga, pedagogika oliy ta’lim tashkiloti talabalarining tadqiqot oxirga kelib qayta texnik tayyorgarligi nazoratdan o‘tkazildi. Unga ko‘ra, tadqiqot boshida olingan nazorat mashqlari orqali takroriy ravishda tadqiqot oxirida pedagogik nazorat olib borildi.

Yuqorida keltirilgan jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, bir oyoqda siltanib, boshqasida itarilib qo‘llarda turish, gilamda 10 urinish nazorat mashqida tadqiqot boshida tajriba guruhi sinaluvchilari o‘rtacha 2,54 marta bajarilgan bo‘lsa, tadqiqot so‘ngiga kelib ushbu ko‘rsatkich 4,50 marta ga yaxshilanganligi anqilandi. Nazorat guruhida o‘rtacha 3,30 martani, tadqiqot oxiriga kelib, 3,79 martaga yaxshilandi. Qo‘shpoyaga tayanib tebranishdan orqaga siltanib qo‘llarda turish 10 urinish nazorat mashqida tajriba guruhida tadqiqot oldi o‘rtacha 3,34 marta natija qayd etilgan bo‘lsa, tadqiqot so‘ngiga kelib 5,33 marta natija qayd etildi. Turnikka tayanishdan orqaga siltanish va aylanib turish uch marta ketma-ket bajarishda tajriba guruhida o‘rtacha 1,55 marta, tadqiqot so‘ngiga kelib 2,12 martaga yaxshilandi. Nazorat guruhida o‘rtacha tadqiqot boshida 4,15 martaga, tadqiqot oxiriga kelib 4,50 martaga yaxshilandi. Dastakli otda to‘g‘ri chalishtirish mashqida tadqiqot boshida o‘rtacha 8,94 marta bajargan bo‘lsa, tadqiqot oxiriga kelib 16,08 martaga yaxshilandi. Ushbu nazorat mashqida tadqiqot boshida 6,90 marta, tadqiqot oxiriga kelib19,41 martaga o‘zgardi. Dastakli otda ko‘ndalang aylanish nazorat mashqida tajriba guruhi o‘rtacha tadqiqot oxiri 6,09 martani, tadqiqot oxiriga kelib ushbu natija 14,33 martga yaxshilanishga erishildi. Nazorat gurhida o‘rtacha tadqiqot oxiri 4,84 martani, tadqiqot oxiriga kelib 11,66 marta tashkil etdi.

6-jadval

Pedagogik kuzatuv davomida talabalarning texnik tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini o‘zgarishi (n=180)

T/r	Texnik tayyorgarlik bo‘yicha nazorat mashqlari	Guruh	Tadqiqot boshi		Tadqiqot oxiri		t	P
			TB $\overline{X}$ ±σ	V, %	TO $\overline{X}$ ±σ	V, %		
1	Bir oyoqda siltanib,boshqasida itarilib qo‘llarda turish, gilamda 10 urinish (marta)	TG	2,54±0,57	22,44	4,50±0,48	10,66	2,15	<0,05
		NG	3,30±0,55	16,66	3,79±0,47	12,40	1,78	>0,05
2	Qo‘shpoyaga tayanib tebranishdan orqaga siltanib qo‘llarda turish 3-5 urinish (soni)	TG	3,34±0,75	22,45	5,33±0,67	12,57	2,91	<0,01
		NG	4,15±1,02	24,57	4,50±1,00	22,22	1,69	>0,05
3	Tayanchdan kerishib, tos-son bo‘g‘imlarida bukilib, so‘ngra yozilib, oldinga siltanib, orqaga tayanib aylanish ketma-ket uch marta.	TG	1,55±0,11	7,09	2,12±0,32	12,26	2,26	<0,05
		NG	1,68±0,39	23,21	1,92±0,37	19,27	1,87	>0,05
4	Dastakli otda tayanish mashqi: texnikani saqlagan holda har bir oyoqda oldinga va orqaga 3 martadan siltanish.	TG	6,90±0,67	9,71	19,41±1,95	10,04	2,35	<0,05
		NG	8,94±1,75	19,57	16,08±2,11	12,55	1,91	>0,05
5	Qo‘shpoyada 90˚dan past bo‘lmagan siltanish (10 martadan oldinga va orqaga)	TG	6,09±0,77	12,64	14,33±0,57	3,97	2,42	<0,05
		NG	4,84±1,42	29,33	11,66±2,27	19,46	1,80	>0,05

Barcha tajriba guruhlarda kuch qobiliyatining statistik jihatdan sezilarli yaxshilanishini hisobga olgan holda, talabalarda kuchni kompleks rivojlantirish usuli pedagogik jihatdan mos keladi, degan xulosaga kelish mumkin. Tadqiqotga jalb etilgan sinaluvchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligi bo‘yicha olingan natijalardan shunday xulosaga kelindiki, nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhidagi natijalar ishonchli o‘sish kuzatilganligi aniqlandi. Bu shundan dalolat beradiki, biz tomonimizdan tajriba guruhi mashg‘ulotlarida qo‘llanilgan vosita va usullar, metodikalar to‘g‘ri tanlanganligi va qo‘llanilganligini isbotlaydi.

XULOSALAR

1. Dissertatsiyada keltirilgan adabiyotlar tahlili materiallari va shaxsiy tadqiqotlar natijalari amaliy gimnastikaning oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining maxsus harakat faolligini rivojlantirish va ularning asosiy jismoniy sifatlarini tuzatish vositasi sifatidagi ahamiyatini asoslaydi. Kuch va kuch chidamliligi insonning asosiy jismoniy qobiliyatlari ekanligi aniqlangan. Ularni rivojlantirish pedagogik jihatdan asoslangan usullar va turli xil trenajyor qurilmalarini qo‘llashni talab qiladi. Bunda kuch va uning tarkibiy qismlarini rivojlantirishning eng samarali usuli 18-21 yoshli yigitlarning individual jismoniy imkoniyatlariga moslashtirilgan og‘irliklar (gantellar va trenajyorlar) bilan bajariladigan mashqlardan foydalanishdir.

2. Talabalarni maqsadli jismoniy rivojlantirish uchun qo‘l va oyoq mushaklarining kuchi va chidamliligini rivojlantiruvchi mashqlarni (masalan, shtanga bilan bajariladigan mashqlar yoki gimnastika o‘rindig‘idan ko‘tarilib turish) belning statik kuchini mustahkamlovchi mashqlar (masalan, yotgan holatdan gavdani ko‘tarish) bilan uyg‘unlashtirib olib borish zarur. Demak, pedagogik amaliyotda samarali vosita va usullarni tanlash bilan bir qatorda, optimal mashg‘ulot yuklamasini to‘g‘ri belgilash juda muhimdir.

3. Oliy ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirish uchun har tomonlama jismoniy yuklamani ta’minlaydigan maxsus mashqlar majmuasini qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Xususan, qo‘l, yelka, orqa, bel va oyoq mushaklarini mashq qildirishga qaratilgan amaliy gimnastika elementlari asosiy kuch ko‘rsatkichlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shtanga bilan bajariladigan mashqlar, qiya skameykada qo‘llarni ko‘tarish va turnikda tortilish mashqlari statik va dinamik kuch sifatlarini kompleks tarzda shakllantiradi. Bu orqali talabalar nafaqat kuchni, balki muvozanat, chidamlilik va tanani nazorat qilishni ham rivojlantiradilar. Bunday mashqlarni muntazam bajarish hayotiy muhim harakat ko‘nikmalari va ko‘nikmalarini shakllantiradi: o‘zgaruvchan vaziyatlarda muvozanatni saqlash qobiliyati, harakatlar tezligi va energiyani oqilona sarflash.

4. Olingan ma’lumotlar jismoniy tayyorgarlik darajasiga qarab mukammal rivojlantirishga qaratilgan mashqlar bilan shug‘ullanadigan universitet talabalarida jismoniy yuklama hajmining turli chegaralarini aniqlashga yordam berdi. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida yuklamalarni optimallashtirish uchun shiddat zonalari bo‘yicha energiya ta’minotiga qarab aerob va anaerob nisbati, kislorod istemoli, ish vaqtidagi laktat miqdoriga asosan samarali ish vaqti me’yorlari, yuklama darajasining davomiyligi, intensivligi, xarakteri belgilash natijasida sog‘lomlashtiruvchi va tiklashga qaratilgan darslarini tashkil etish zarurligi aniqlandi.

5. Talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun akademik mashg‘ulotlarda amaliy gimnastika vositalari orqali past, o‘rta va yuqori tayyorgarlik darajasiga ega bo‘lgan talabalarning kuch, kuch va chidamlilik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan tabaqalashtirilgan dasturni ishlab chiqish natijasida maxsus harakat tayyorgarligini rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirildi. Shuningdek, har bir guruh uchun optimal yuklamani aniqlash bo‘yicha tadqiqot o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, kuch chidamliligini shakllantirish mexanizmi ham o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida ma’lum bo‘ldiki, tayyorgarlik darajasi yuqori bo‘lgan talabalar uchun optimal yuklama maksimal ko‘rsatkichlarning 50-60 foizini, o‘rtacha tayyorgarlik darajasiga ega talabalar uchun 40-45 foizini va sust tayyorgarlikka ega talabalar uchun 30-35 foizini tashkil etadi.

6. Tadqiqot davomida qo‘llanilgan uslubiy usullar natijasida "Bir oyoqda siltab ko‘tarish, ikkinchi oyoqda depsinish, qo‘llarda turish, gilamda urinish" nazorat mashqida tajriba guruhi sinaluvchilari tadqiqot boshida o‘rtacha 2,54 marta bajargan bo‘lsalar, tadqiqot oxiriga kelib bu ko‘rsatkich 4,50 martaga yaxshilandi. "Qo‘shpoyada tebranishdan orqaga uloqtirish" nazorat mashg‘ulotida tajriba guruhida o‘rtacha natija tajribadan oldin 3,34 martani, tajriba oxiriga kelib esa 5,33 martani tashkil etdi. Turnikda tayanib orqaga siltanish va uch karra ketma-ket bajarishda aylanish tajriba guruhida o‘rtacha 1,55 martaga, tadqiqot oxiriga kelib esa 2,12 martaga yaxshilandi. "Otda to‘g‘ri chalishtirish" mashqini tajriba boshida o‘rtacha 8,94 marta bajargan bo‘lsa, tajriba oxiriga kelib 16,08 marta yaxshilandi. Qo‘lda boshqariladigan otda ko‘ndalang aylanish bo‘yicha nazorat mashg‘ulotida tajriba guruhining o‘rtacha natijasi tadqiqot oxirida 6,09 martani, tadqiqot oxiriga kelib esa

7. Amaliy gimnastika vositalaridan foydalangan holda tabaqalashtirilgan dasturni joriy etish past, o‘rta va yuqori jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lgan talabalarning maxsus harakat tayyorgarligi imkoniyatlarini kengaytirish imkonini berdi. Tadqiqot davomida har bir guruh uchun optimal mashg‘ulot yuklamalari aniqlandi va kuch chidamliligini shakllantirish mexanizmi o‘rganildi. Optimal yuklama quyidagicha bo‘lishi aniqlandi:

• yuqori tayyorgarlik darajasiga ega talabalar uchun - maksimal ko‘rsatkichlardan (50%-60%);

• o‘rta tayyorgarlik darajasiga ega talabalar uchun - (40%-45%);

• tayyorgarlik darajasi past bo‘lgan talabalar uchun - (30%-35%).

8. Mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish uchun aerob yoki anaerob zonalarda mashqlar bajarib, yuklama shiddatini nazorat qilish juda muhimdir. Yurak qisqarishlari soni (YUQS), kislorod iste’moli va laktat darajasi asosida mashqlarni to‘g‘ri tanlash organizmning funksional imkoniyatlarini maksimal darajada ochish imkonini beradi. Sportchi talabalar uchun bu yondashuv professional musobaqalarga tayyorgarlikning asosi bo‘lsa, qolganlar uchun sog‘lom turmush tarzi doirasida jismoniy faollikni shakllantirishning garovidir. Bundan tashqari, yuklamalarni nazorat qilish ortiqcha zo‘riqishning oldini oladi va tiklanish jarayonini tezlashtiradi.

AMALIY TAVSIYALAR

1. Dissertatsiyada keltirilgan adabiyotlar tahlili natijalari va shaxsiy tadqiqotlar amaliy gimnastikaning oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining maxsus harakat faolligini rivojlantirish va ularning jismoniy sifatlarini tuzatish vositasi sifatidagi ahamiyatini isbotlaydi. Kuch va kuch chidamliligi insonning asosiy jismoniy qobiliyatlari ekanligi aniqlandi. Ularni rivojlantirish pedagogik jihatdan asoslangan usullarni qo‘llashni, xilma-xil trenajyor va texnik qurilmalardan foydalanishni talab qiladi. Bunda 18-21 yoshli o‘smirlarning individual jismoniy imkoniyatlariga moslashtirilgan og‘irliklar (gantellar, rezina bintlar, jgutlar va boshqalar) bilan bajariladigan mashqlar kuch qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali vositasi sifatida e’tirof etilgan.

2. Talabalarni maqsadli jismoniy rivojlantirish uchun qo‘l va oyoq mushaklarining kuchi va chidamliligini rivojlantiruvchi mashqlarni (masalan, og‘irliklar bilan ishlash yoki gimnastika snaryadlaridan qo‘llarni ko‘tarish) orqa va bel mushaklarini mustahkamlovchi mashqlar (masalan, yotgan holatdan gavdani ko‘tarish) bilan uyg‘unlashtirib olib borish zarur. Demak, pedagogik amaliyotda samarali vosita va usullarni tanlash bilan bir qatorda, optimal mashg‘ulot yuklamasini to‘g‘ri belgilash juda muhimdir.

3. Yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlikka ega talabalarga maksimaldan 70-80% og‘irlik bilan, o‘rta jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lganlar esa 60-70%, jismoniy tayyorgarligi zaif talabalar esa 50-60% og‘irlik bilan mashq qilish tavsiya etiladi.

4. Og‘irlik bilan bajariladigan mashqlar, qiya skameykada, qo‘shpoyada va turnikda tortilish mashqlari statik va dinamik kuch sifatlarini kompleks tarzda shakllantiradi. Bu orqali talabalar nafaqat kuchni, balki koordinatsiya, chidamlilik va tanani nazorat qilishni ham rivojlantiradilar. Bunday yuklamalarni muntazam bajarish hayotiy muhim harakat ko‘nikmalari va kompetensiyalarini shakllantiradi: o‘zgaruvchan vaziyatlarda muvozanatni ishonchli saqlash; harakat tezligini rivojlantirish; energiyani oqilona sarflash.

5. Oliy ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirish uchun talabalarni har tomonlama harakatga keltiruvchi maxsus mashqlar majmuasini qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Qo‘l, yelka, orqa, bel va oyoq mushaklarini faollashtirishga qaratilgan amaliy gimnastika mashqlari talabaning tayanch-harakat apparatining asosiy kuch komponentlarini rivojlantiradi. Trenaj turnikini kerakli darajada ushlab, og‘irlikni ko‘tarish, qiya o‘rindiqda yotib qo‘llarni bukish va yozish, turnikda tortilish kabi harakatlar statik va dinamik kuchni bir vaqtda rivojlantiradi. Buning natijasida talabalar bir vaqtning o‘zida kuch qobiliyatlarini, vestibulyar barqarorlikni, chidamlilikni va tanani nazorat qilish qobiliyatlarini tarbiyalaydilar. Mashqlarni muntazam qo‘llash orqali tanlangan sport turi uchun zarur bo‘lgan tana holatini o‘zgaruvchan vaziyatlarda saqlash, harakat tezligi, funksiyalarni tejash kabi asosiy sifatlar shakllantiriladi.

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ УЗБЕКИСТАНА НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.28/2025.27.12.Ped.02.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УНИВЕРСИТЕТЕ

УЗБЕКСКОЕ ГОСУДАРСТВО ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ УНИВЕРСИТЕТ

ШАЙИМАРДАНОВ ШЕРАЛИ АБДУРАШИДОВИЧ

РАЗВИТИЕ СПЕЦИАЛЬНО-ДВИГАТЕЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ С ПОМОЩЬЮ СРЕДСТВ ПРИКЛАДНОЙ ГИМНАСТИКИ

13.00.04 - Физическая культура, спортивная тренировка, оздоровительная и адаптивная теория и методика физического воспитания

диссертация доктора философии (PhD) по педагогическим наукам
АВТОРЕФАРАТ

Чирчик-2026

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под номером B2020.4.PhD/Ped2037.

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете физической культуры и спорта.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.uzdjtsu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Умарова Марса Нарзиевича** кандидат педагогических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Isakulova Nilufar Janikulovna** Доктор педагогических наук профессор
	Bekmirzayev Mirjalol Xusanboy o‘g‘li доктор философии по педагогическим наукам (PhD),
Ведущая организация:	**Ферганский государственниый университет**

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.28/2025.27.12.Ped.02.01 при Узбекском государственном университете физической культуры и спорта «18» ноября 2026 г в « 14:00 » часов. (Адрес: 111709, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Спортчилар, 19. Тел.: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, факс: (0-370) 717-17-76, Веб-сайт: www.uzdjtsu.uz, e-mail: uzdjtsu@uzdjsu.uz. Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, здание «А» 1-й этаж, аудитория 118).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета физической культуры и спорта (зарегистрирована под No 0267). (Адрес: 111709, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Спортчилар, 19. Тел.: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, факс: (0-370) 717-17-76.

Автореферат диссертации разослан «6» ноября 2026 года.

(реестр протокола рассылки No 16 от «18» сентября 2026 года.)

Р.М.Маткаримов
Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.п.н. (DSc), профессор

Ш.Ш.Газиев
Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.п.н. (DSc), профессор

М.С.Олимов
Председатель научного семинара
при научном совете
по присуждению ученых степеней,
д.п.н. (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность исследования Современные мировые тенденции обусловливают повышенное внимание к совершенствованию системы физического воспитания студентов, а также к организации тренировочного процесса с учетом физического развития и функциональных возможностей молодежи. Развитие силовых способностей в процессе физической подготовки студентов необходимо для достижения высоких результатов в соревновательной деятельности, а также для выполнения физических нагрузок, встречающихся в повседневной и профессиональной деятельности. Анатомо-физиологическая зрелость опорно-двигательного аппарата и нервно-мышечной системы в возрасте 18-21 лет создает оптимальные предпосылки для целенаправленного развития силовых способностей. Тот факт, что этот возрастной период совпадает с этапом обучения большинства молодых людей в высших учебных заведениях, требует рационального использования средств и параметров нагрузок, направленных на силовую подготовку на занятиях по физическому воспитанию студентов. В связи с этим возникает необходимость совершенствования учебных и тренировочных программ, направленных на развитие силовых способностей студентов в высших учебных заведениях с учетом их возраста, физической подготовленности и функциональных возможностей.

В мире проводятся широкий круг научные исследования, направленные на использование упражнений прикладной гимнастики в развитии силовых способностей студентов, адаптацию их к учебному и тренировочному процессу, а также рациональное планирование нагрузок. В исследованиях в этом направлении изучаются вопросы выбора педагогических средств и методов, расширяющих возможности выполнения двигательных задач студентов, совершенствования содержания занятий, развитие силовой, скоростно-силовой и силовой выносливости. Поскольку эти виды силовых способностей проявляются в спортивной деятельности не в отдельном виде, а во взаимосвязи, существует потребность в их комплексном развитии. При оценке влияния упражнений атлетической гимнастики на физическое состояние особое внимание уделяется использованию дифференцированному подходу, учитывающих соматическое развитие, телосложение и двигательные возможности занимающихся. Такой подход требует определения специализированных средств подготовки, объема и интенсивности занятий в соответствии с индивидуальными особенностями студентов.

В Узбекистане вопросы физической, в частности, комплексной силовой подготовки студентов в процессе обучения и тренировок в высших учебных заведениях считаются одним из важнейших приоритетных направлений. Современное высшее образование не может успешно функционировать без изменения содержательных, организационных и педагогических форм, направленных на воспитание физически подготовленных специалистов и защитников Родины. Следовательно, несмотря на трудности и проблемы, система всесторонней физической подготовки студентов в нашей стране требует коренных изменений. Одним из приоритетных направлений является «обеспечение качества

подготовки кадров в высших образовательных организациях, обладающих современными знаниями и навыками в области профессиональной деятельности, владеющих информационно-коммуникационными технологиями и иностранными языками» [1]. Поэтому, учебные программы начальных курсов по физическому воспитанию в высших учебных заведениях, особое внимание должно уделялять комплексному развитию силовых способностей студентов средствами основной, и в частности атлетической гимнастики. Кафедры физического воспитания самостоятельно должны определять содержание практического раздела рабочих программ не исключает целесообразности обязательного включения силовых упражнений в учебный и тренировочный процесс.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных Законом Республики Узбекистан «Об образовании» от 23 сентября 2020 года, постановлениями Президента Республики Узбекистан от 5 ноября 2021 года No ПП-5281 «О комплексной подготовке спортсменов Узбекистана к XXXIII летним Олимпийским и XVII Паралимпийским играм, проводимым в городе Париже (Франция) в 2024 году» и от 23 декабря 2022 года No ПП-449 «О мерах по дальнейшему развитию гимнастических видов спорта».

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В нашей республике наряду с интеллектуальным воспитанием студенческой молодежи, уделяя большое внимание вопросам укрепления их двигательной и специально-физической подготовки. М.Н. Умаров, А.К. Эштаев, К.Д. Ярашев, Д.Х. Умаров, Б.Б. Мусаев, Н.Х. Якубова, Г.М. Хасанова, И.И. Моргунова, С.А. Эштаев, Х.Х. Умаров, М.Э. Сулаймонов, Х.А. Каримов, С.М. Тойлыбаев, Г.Х. Равшанов[2] в своих научных

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-dekabrdagi "Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-449-son Qarori

